Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil va guruhlash, ekonometrik tahlil va prognozlashtirish usullari qo‘llanilgan.

**Tahlil va natijalar**

Mamlakatda mintaqani barqaror rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan davlat dasturlari samaradorligini, ularni amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari va hozirgi holati bo‘yicha umumlashtirilgan ko‘rsatkichlarni tahlil qilish asosida mazkur sohadagi mavjud muammolarni aniqlagan holda xalqaro standartlar tizimiga mos keluvchi dasturlarni ishlab chiqish asosida respublika viloyatlarini barqaror

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-223-son Farmoni, 20.12.2024

rivojlantirish mexanizmi samradorligini oshirishga erishiladi. Jumladan, mamlakatimizda mintaqani barqaror rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan davlat va hududiy dasturlar samaradorligini baholash maqsadida Xalqaro barqaror rivojlanish instituti (International Institute for Sustainable Development – IISD) bilan O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tomonidan o‘zaro hamkorlikda o‘tkazilgan tadqiqotlari natijalaridan foydalanishni lozim topdik.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, mamlakatda mintaqani barqaror rivojlantirish yo‘nalishlari sifatida quyidagi shartli belgilash o‘tkazilgan:

– iqtisodiy islohotlar samaradorligi sifatida mamlakatning barqaror rivojlanish indeksi belgilangan;

– ekologik barqarorlik yo‘nalishi bo‘yicha mamlakatning atrof-muhit samaradorligi indeksi ko‘rsatkichlari belgilab olingan;

– ijtimoiy yo‘nalishdagi barqarorlik borasida inson taraqqiyoti indeksi belgilangan.

Demak, tadqiqot natijalariga ko‘ra, so‘nggi o‘n yillik davr mobaynida mamlakatda barqaror rivojlanish indeksi bo‘yicha ko‘rsatkichi 9,0 foizga ortib, iqtisodiy yo‘nalishda amalga oshirilayotgan davlat dasturlarining barqaror rivojlanish mexanizmi ekologik va ijtimoiy yo‘nalishdagi dasturlarga nisbatan samarali ekanligi aniqlangan. Jumladan, so‘nggi uch yil mobaynida mamlakatda inson taraqqiyoti indeksi 7,0 foizga ortib, ijtimoiy yo‘nalishdagi islohotlarni barqaror rivojlanish mexanizmi iqtisodiy va ekologik yo‘nalishlardagi dasturlarga nisbatan samarali ekanligi isbotlangan (1-jadvalga qarang).

**1-jadval**

**O‘zbekistonning global reytinglardagi o‘rni[2]**

| Reyting tizimlari | So‘nggi o‘n yillikdagi tendensiya | So‘nggi uch yillikdagi tendensiya |
|---|---|---|
| Atrof-muhit samaradorligi indeksi | +1,90 reyting ball | O‘zgarishsiz qolgan |
| Barqaror rivojlanish indeksi | +9,0 foiz | +3,0 foiz |
| Inson taraqqiyoti indeksi | +1,0 foiz | +7,0 foiz |

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, 2014-yilga nisbatan inson taraqqiyoti indeksi 2023-yilda 1,0 foizga ortgan bo‘lsa, 2015–2020-yillarda 6,0 foizga kamayib, 2021–2023-yillarda 7,0 foizga ortganligi bilan xaarakterlanadi. Ushbu holat Yangi O‘zbekiston islohotlarining dastlabki bosqichida ijtimoiy yo‘nalishdagi davlat dasturlarining barqaror rivojlanish mexanizmi samarasiz bo‘lib, so‘nggi yillarda rivojlanish vektoriga ega bo‘lib kelayotganligi bilan izohlanadi.

[2] Ministry of Ecology, Environmental Protection and Climate Change of the Republic of Uzbekistan. National state of the environment report: Uzbekistan. International Institute for Sustainable Development. 2023. – 121 p. ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Jumladan, ekologik yo‘nalishda amalga oshirilayotgan davlat dasturlarining ham barqarorlik mexanizmini takomillashtirish zaruriyati mavjud ekanligi so‘nggi uch yillikda mamlakatning atrof-muhit samaradorligi bo‘yicha reyting ko‘rsatkichlari o‘zgarishsiz qolganligi, shuningdek, respublikada barqaror rivojlanish indeksining tahlil etilayotgan davrda 3,0 foizga ortganligi respublika viloyatlarining iqtisodiy rivojlanish salohiyatidan yetarli darajada foydalanilmayotganligini ko‘rsatadi.

O‘tkazilgan tadqiqot doirasida mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining asosiy tendensiyalari va ko‘rsatkichlariga baho berish orqali uning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga erishilgan.

**2-jadval**

**O‘zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotiga xos xususiyatlari**[3]

| Ko‘rsatkichlar | So‘nggi o‘n yillikdagi tendensiya | So‘nggi uch yillikdagi tendensiya | Rivojlanish trendi xususiyati |
|---|---|---|---|
| YIM o‘sishi | Ijobiy | Ijobiy | Uzoq vaqt mobaynida YIMning o‘rtacha yillik o‘sishi 5,0 foizdan yuqori bo‘lgan |
| Rasmiy bandlik | Ijobiy | Ijobiy | Yollanib ishlovchilar bilan o‘z-o‘zini band qilish hisobiga rasmiy bandlik ortgan |
| Ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishi | Ijobiy | Ijobiy | Ishlab chiqarishning fizik hajmi innovatsiya va yangi texnologiyalar hisobiga ortmoqda |
| Birlamchi yonilg‘i va energiya ishlab chiqarish | O‘zgarmagan | Ijobiy | Energiya samaradorligi ko‘rsatkichi so‘nggi yillardagi innovatsion faollik hisobiga ortmoqda |
| Sanoat tarmoqlarida suvga bo‘lgan talab | Salbiy | Salbiy | Ishlab chiqarish hajmining ortishi suv resurslaridan intensiv foydalanish zaruratini oshirmoqda |
| Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish | Salbiy | Sezilarsiz ijobiy tendensiya | 2021-yildan keyingi davrda quyosh va gidroenergetika rivojlantirilmoqda, infratuzilma yetishmovchiligi muammosi mavjud |

Shu bilan birga, tadqiqot doirasida ekologik yo‘nalishdagi barqaror rivojlanish mexanizmi holatiga ham baho berilib, bunda mamlakatda ekologik muammolar tobora avj olib borayotganligi aniqlangan. O‘rganishlarga ko‘ra, mamlakatda infratuzilma yetishmovchiligi, xususan, yo‘l infratuzilmasining talabga javob

[3] Ministry of Ecology, Environmental Protection and Climate Change of the Republic of Uzbekistan. National state of the environment report: Uzbekistan. International Institute for Sustainable Development. 2023. – 121 p. ma’lumotlari asosida tuzilgan.

bermasligi hisobiga avtomobillar tirbandligi hisobiga atmosferaga zararli gazlar chiqish hajmi ortib bormoqda (3-jadvalga qarang).

**3-jadval**

**O‘zbekistonning ekologik barqarorlik yo‘nalishi uchun xos xususiyatlari[4]**

| Ko‘rsatkichlar | So‘nggi o‘n yillikdagi tendensiya | So‘nggi uch yillikdagi tendensiya | Rivojlanish trendi xususiyati |
|---|---|---|---|
| Statsionar manbalar hisobiga ifloslanish | Salbiy | O‘zgarmagan | Statsionar manbalardan ifloslanish hajmi jadal sur’atlarda ortib borgan, ammo so‘nggi uch yillikda uni barqarorligini ta’minlashga erishilgan |
| Mobil manbalar hisobiga ifloslanish | Salbiy | Salbiy | Avtomobillar harakatiga yo‘l infratuzilmasining to‘liq javob bermasligi hisobiga tirbandliklar ortib, atmosferaga chiqariladigan zararli gazlar hajmi o‘sib bormoqda. Toshkent, Samarqand va Farg‘ona viloyatlari jami bu turdagi gazlarning 88,0 foizini atmosferaga chiqaradi |
| ***Maxsus ifloslantiruvchi moddalar bo‘yicha:*** | | | |
| Qattiq jism va moddalar | Salbiy | Salbiy | Sanoat (sement) chiqindilari chiqarish hajmi baland bo‘lib, atrof-muhit va insonlar salomatligi uchun xavfli |
| Oltingugurt dioksidi (SO2) | Salbiy | Ijobiy | Sanoat tarmoqlarida atrof-muhit va insonlar salomatligi uchun xavfli bo‘lgan energiya chiqindilari hajmi ko‘p |
| Kobalt (CO) | Salbiy | Ijobiy | So‘nggi yillarda qisqartirishga erishildi |
| Azot oksidi (NOX) | Salbiy | Salbiy | Sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi hisobiga ortmoqda |
| Uglevodorodlar | Salbiy | Ijobiy | So‘nggi yillarda sezilarli darajada qisqartirishga erishildi |

Shu bilan birgalikda, mamlakatda suv resurslaridan foydalanish holati bo‘yicha ham tegishli muammolar mavjud bo‘lib, faqatgina sug‘oriladigan yerlarning 23,0 foiz qismini suv tejovchi texnologiyalar bilan ta’minlashda ijobiy natijaga erishilgan bo‘lib, iqtisodiyot tarmoqlari kesimida suv resurslari iste’moli, ularda suvning yo‘qotilishi, suvning ifloslanishi kabi yo‘nalishlarda salbiy tendensiyalari kuzatilmoqda (4-jadvalga qarang).

[4] Ministry of Ecology, Environmental Protection and Climate Change of the Republic of Uzbekistan. National state of the environment report: Uzbekistan. International Institute for Sustainable Development. 2023. – 121 p. ma’lumotlari asosida tuzilgan.

**4-jadval**

**O‘zbekistonning suv resurslaridan foydalanish holati bo‘yicha o‘ziga xos xususiyatlari[5]**

| Ko‘rsatkichlar | So‘nggi o‘n yillikdagi tendensiya | So‘nggi uch yillikdagi tendensiya | Rivojlanish trendi xususiyati |
|---|---|---|---|
| Suv iste’moli (tarmoqlar kesimida) | Salbiy | Salbiy | Sanoat ishlab chiqarishi va kommunal sohada suv iste'moli ortib bormoqda |
| Tarmoqlarda suv resurslari yo‘qotilishi | Salbiy | Juda salbiy | Magistral va xo‘jaliklararo kanallar va ichki tarmoqlarda katta miqdorda suv yo‘qotiladi, sug‘orish tizimlari past samaradorlikka ega, sanoat korxonalari suvni qayta ishlashdan manfaatdor emas |
| Suvning ifloslanishi | Salbiy | Salbiy | Aksariyat suv oqimlari o‘rta darajadagi ifloslanish reytingiga ega, yirik sanoat obyektlari va kommunal oqava suvlarini tozalash inshootlari mavjud hududlarda suv sifati mahalliy darajada yomonlashgan |
| Muzliklarning qisqarishi | Salbiy | Salbiy | Global iqlim o‘zgarishi sababli Markaziy Osiyo muzliklari hajmi 30,0 foizga qisqarib, keyingi yillarda ushbu ko‘rsatkich o‘sishi prognoz qilinmoqda |
| Qurg‘oqchilik davomiyligi va chastotasi | O‘zgarmagan | Salbiy | Kuchli qurg‘oqchilik davrlari: 2000-yil, 2008-yil, 2011-yil, 2014-yil va 2018-yillar |
| Suv tejovchi texnologiyalar | Salbiy | Ijobiy | Sug‘oriladigan yerlarning 23,0 foizi suv tejovchi texnologiyalar bilan ta’minlangan |

Shuningdek, mamlakatda sanoat ishlab chiqarishi sohasini rivojlantirish bo‘yicha “yashil” investitsiya va texnologiyalardan keng foydalanish zaruriyati mavjud ekanligi aniqlandi. Ushbu holat sanoat ishlab chiqarishi hisobiga atrof-muhit va inson salomatligi uchun zararli bo‘lgan maxsus ifloslantiruvchi moddalarning chiqarilishi ham ortib borayotganligi bilan izohlanadi (3-jadvalga qarang).

O‘rganishlarga ko‘ra, mamlakatda mintaqani barqaror rivojlantirishning ijtimoiy yo‘nalishida amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi ekologik va iqtisodiy yo‘nalishdagi islohotlarga nisbatan ijobiy tendensiyaga ega bo‘lganligi bilan xarakterlanadi. Ammo mamlakatda ijtimoiy infratuzilma yetishmovchiligi bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar hali hanuz mavjud bo‘lib, ushbu holat chekka hududlardagi aholi yashash punktlariga ko‘zga tashlanadi. Shu bilan birgalikda, qishloq va shahar hududlari ijtimoiy infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi

[5] Ministry of Ecology, Environmental Protection and Climate Change of the Republic of Uzbekistan. National state of the environment report: Uzbekistan. International Institute for Sustainable Development. 2023. – 121 p. ma’lumotlari asosida tuzilgan.

bo‘yicha ham sezilarli darajada farqlanish holatlari mavjud hisoblanadi (5-jadvalga qarang).

**5-jadval**

**O‘zbekistonning ijtimoiy rivojlanish yo‘nalishidagi barqarorlik xususiyatlari**[6]

| Ko‘rsatkichlar | So‘nggi o‘n yillikdagi tendensiya | So‘nggi uch yillikdagi tendensiya | Rivojlanish trendi xususiyati |
|---|---|---|---|
| Umr davomiyligi | Ijobiy | O‘zgarmagan | Mamlakat aholining umr davomiyligi tibbiy xizmatlar sifati hisobiga ortib bormoqda |
| Bolalarning oziq-ovqat xavfsizligi va ovqatlanishi | O‘zgarmagan | Ijobiy | So‘nggi yillarda bolalar salomatligi, jumladan, ularning sog‘lom va xavfsiz ovqatlanishini ta’minlashga ustuvorlik kuchli qaratilmoqda |
| Yurak-qon tomir va nafas yo‘li kasalligi | O‘zgarmagan | Ijobiy | Kasallanish darajasi kamaygan, ammo IHTT mamlakatlariga nisbatan hali hanuz yuqori hisoblanadi |
| Oziq-ovqat va to‘yib ovqatlanish | Ijobiy | Ijobiy | Aholining asosiy turdagi oziq-ovqat, jumladan, sut va sut mahsulotlari, tuxum, meva va sabzavotlar iste’moli sezilarli ortgan |
| Aholi savodxonligi | Ijobiy | Ijobiy | Aholiga ko‘rsatilayotgan ta’lim xizmatlarining qamrovi kengayib, sifati takomillashtirilgan |
| Aholi daromadlari | Ijobiy | Ijobiy | Aholi jon boshiga real daromadlar respublikaning barcha viloyatlari ortgan |
| Ijtimoiy infratuzilma | Ijobiy | Ijobiy | Ijtimoiy infratuzilma holati yaxshi-lanishiga qaramay, muammolar mavjud |

O‘tkazilgan tahlillarga asoslangan holda mamlakatimizda mintaqaviy barqaror rivojlanish mexanizmi ijtimoiy yo‘nalishda iqtisodiy va ekologik barqarorlik yo‘nalishiga nisbatan samarali amal qilib kelayotganligi aniqlandi. Shu bilan birgalikda, mintaqaviy barqaror rivojlanish mexanizmining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha tegishli muammolar mavjud bo‘lib, eng ko‘p muammoli vaziyatlar ekologik barqarorlik yo‘nalishida bo‘lib, bu turdagi muammolar respublika hududlarining iqtisodiy rivojlanish salohiyatidan to‘liq foydalanish imkoniyatini bermayotganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Ushbu vaziyatni inobatga olgan holda mamlakatimiz hududlari kesimida mintaqaviy barqaror rivojlanish mexanizmini xalqaro standartlarga moslashtirishda ilg‘or xorij amaliyotiga asoslanishni lozim topdik.

Jahon amaliyoti tahliliga ko‘ra, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) ga a’zo bo‘lgan mamlakatlarda mintaqaviy barqaror rivojlanish mexanizmlari BMT tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillar tizimini o‘zaro mutanosiblashgan holda qo‘llab kelayotganligini bilan xarakterlanadi. O‘tkazilgan tahlillarga ko‘ra, barqaror rivojlanish mexanizmida ekologik muammolar ustuvor ahamiyat kasb etuvchi

[6] Ministry of Ecology, Environmental Protection and Climate Change of the Republic of Uzbekistan. National state of the environment report: Uzbekistan. International Institute for Sustainable Development. 2023. – 121 p. ma’lumotlari asosida tuzilgan.

mamlakatlar amaliyotida “ESG” tamoyillariga asoslangan holda “yashil” investitsiyalarni jalb qilishga ustuvorlik qaratiladi. Shu bilan birgalikda, bugungi kunda “ESG” tamoyillari tizimi global investitsion bozorda investorlar uchun ustuvor ahamiyat kasb etuvchi yo‘nalishlarda milliy iqtisodiyot tarmoqlariga o‘z kapitalini joylashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

“ESG” tamoyillari tizimi – bu investorlar uchun barqarorlik va javobgarlik mezonlari sifatida xarakterlanib, faqatgina moliyaviy foyda ko‘rish emas, balki ekologik (atrof-muhitning ifloslanishi, energiya samaradorligini oshirish, resurs tejamkorligini ta’minlash), ijtimoiy (mehnat huquqlarini qimoya qilish, ijtimoiy tenglikni ta’minlash va aholi bandligini rag‘batlantirish) va boshqaruv (davlat boshqaruvida shaffoflik, korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashish va uni cheklash) bo‘yicha barqaror rivojlanish mexanizmi samaradorligini oshirishga xizmat qilgan holda Yangi O‘zbekiston sharoitida “Yashil” energetika siyosati, karbon chiqindilarini qisqartirish (COP 26 – Parij kelishuvi), davlat-xususiy sheriklik (DXSh) orqali ekologik loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirishi bilan xarakterli hisoblanadi.

**6-jadval**

**Yangi O‘zbekistonda “ESG” tamoyillari orqali “yashil” investitsiyalarni jalb qilish mumkin bo‘lgan ustuvor sohalar**[7]

| Sohalar | Sabablar |
|---|---|
| Qayta tiklanuvchi energiya (quyosh va shamol energiyasi) | Tabiiy iqlim sharoiti, energiya ehtiyoj yuqori |
| Suv tejovchi texnologiyalar | Qurg‘oqchilik, suv resurslari tanqisligi |
| Eko-infratuzilma | Qattiq chiqindilarni qayta ishlash, energiya, samarador uylar |
| Barqaror qishloq xo‘jaligi | Agroeksport va organik mahsulot yetishtirish salohiyati |
| “Yashil” transport | Avtobuslar, velosiped infratuzilmasi, elektromobillar |

O‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, Yangi O‘zbekiston sharoitida “ESG” tamoyillari tizimi asosida qayta tiklanuvchi energiya (quyosh, shamol energiyasi), suv tejovchi texnologiyalar, eko-infratuzilma, barqaror qishloq xo‘jaligi va “yashil” transport kabi sohalarga “yashil” investitsiyalarni jalb qilish mumkin bo‘ladi (6-jadvalga qarang).

Shu bilan birga, “ESG” tamoyillari tizimi asosida davlat tomonidan amalga oshiriladigan islohotlarning strategik yo‘nalishlari (1-rasmga qarang) quyidagilar bilan boyitilishi talab etiladi:

[7] Muallif tomonidan tuzilgan.

– respublika viloyatlari uchun “ESG” pasportlarini ishlab chiqish – bunda har bir hududning “ESG” ko‘rsatkichlarini baholash orqali olingan natijalarni investorlarga taqdim etish talab etiladi;

– “Yashil” investitsiya agentligini tashkil etish – bu orqali “ESG” loyihalarini moliyalashtirishda DXShning ixtisoslashtirilgan yo‘nalishi shakllantiriladi;

– “ESG” standartlariga muvofiq hujjatlashtirish – bunda yangi investitsion loyihalarni xalqaro “yashil” obligatsiyalar bozoriga chiqarish imkoniyatiga erishiladi;




**1-rasm. Yangi O‘zbekistonda “ESG” tamoyillari tizimini joriy qilishning strategik yo‘nalishlari**[8]

– jamoatchilikni jalb qilish va shaffof monitoring tizimini shakllantirish – mahalliy loyihalarda aholi ishtirokini ta’minlash va ochiq ma’umotlar platformalarini ishlab chiqish kerak bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududlari kesimida taklif etilayotgan “ESG” tamoyillari tizimi asosida yashil investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini hududlarning “yashil” investitsion salohiyatining ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda “ESG” tamoyillari tizimining tarkibiy yo‘nalishlari bo‘yicha quyidagi tartib asosida shartli baholashni amalga oshirdik:

– bir yulduz (☆) – past daraja;

– ikki yulduz (☆☆) – o‘rtadan past daraja;

– uch yulduz (☆☆☆) – o‘rta daraja;

– to‘rt yulduz (☆☆☆☆) – o‘rtadan yuqori darajada;

– besh yulduz (☆☆☆☆☆) – yuqori darajada.

[8] Muallif tomonidan tuzilgan.

**7-jadval**

**Respublika viloyatlarining "ESG" tamoyillari asosida "yashil" investitsion salohiyati bo'yicha reyting ko'rsatkichlari**[9]

| Viloyat / Hudud | Ekologik (E) | Ijtimoiy (S) | Davlat (G) | Umumiy "ESG" ball | Yashil investitsiya salohiyati | Izoh |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Toshkent shahri | ⭐⭐⭐ | ⭐⭐⭐⭐⭐ | ⭐⭐⭐⭐⭐ | 13 / 15 | Juda yuqori | Raqamlashtirish, transparentlik yuqori |
| Toshkent viloyati | ⭐⭐⭐ | ⭐⭐⭐⭐ | ⭐⭐⭐⭐⭐ | 12 / 15 | Yuqori | Sanoatlashgan, yaxshilangan boshqaruv |
| Navoiy viloyati | ⭐⭐⭐⭐⭐ | ⭐⭐⭐ | ⭐⭐⭐⭐ | 12 / 15 | Juda yuqori | Quyosh energiyasi salohiyati yuqori |
| Buxoro viloyati | ⭐⭐⭐⭐ | ⭐⭐⭐ | ⭐⭐⭐ | 10 / 15 | O'rtadan yuqori | Qayta tiklanuvchi energiya uchun qulay |
| Samarqand viloyati | ⭐⭐⭐ | ⭐⭐⭐⭐ | ⭐⭐⭐⭐ | 11 / 15 | Yuqori | Turizm va boshqaruv birgalikda o'smoqda |
| Surxondaryo viloyati | ⭐⭐⭐ | ⭐⭐⭐ | ⭐⭐⭐ | 9 / 15 | O'rtadan past | Agrosanoat, lekin ESG yondashuv kamroq |
| Qashqadaryo viloyati | ⭐⭐ | ⭐⭐ | ⭐⭐ | 6 / 15 | Past | Suv tanqisligi, ESG institutsional zaif |
| Farg'ona viloyati | ⭐⭐⭐ | ⭐⭐⭐⭐ | ⭐⭐⭐ | 10 / 15 | O'rtadan yuqori | Agroinnovatsiyalarga salohiyat bor |
| Andijon viloyati | ⭐⭐⭐ | ⭐⭐⭐⭐ | ⭐⭐⭐⭐ | 11 / 15 | Yuqori | Qishloq xo'jaligi markazlaridan biri |
| Namangan viloyati | ⭐⭐⭐ | ⭐⭐⭐ | ⭐⭐⭐⭐ | 10 / 15 | O'rtadan yuqori | Yoshlar loyihalari uchun qulay muhit |
| Jizzax viloyati | ⭐⭐⭐⭐ | ⭐⭐ | ⭐⭐⭐ | 9 / 15 | O'rtacha | Yashil sanoat uchun imkoniyat bor |
| Sirdaryo viloyati | ⭐⭐⭐ | ⭐⭐⭐ | ⭐⭐⭐ | 9 / 15 | O'rtacha | Agrar-sanoat zonasi sifatida rivojlanmoqda |
| Xorazm viloyati | ⭐⭐⭐ | ⭐⭐⭐⭐ | ⭐⭐⭐ | 10 / 15 | O'rtadan yuqori | Turizm, agrar loyihalar uchun ochiq |
| Qoraqalpog'iston Resp. | ⭐⭐⭐⭐⭐ | ⭐⭐ | ⭐⭐⭐⭐ | 11 / 15 | Donor asosida | Donor va ekologik regeneratsiya markazi |

[9] Muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqorida keltirilgan mezonlar asosida respublika viloyatlarining “ESG” tamoyillari tizimiga asoslangan holda “yashil” investitsiyalarni jalb qilish salohiyati bo‘yicha baholash natijalari 7-jadvalda keltirib o‘tildi. O‘tkazilgan baholash natijalari quyidagi xulosalarni olish imkonini berdi:

– Toshkent shahri, Navoiy va Toshkent viloyatlari “ESG” tamoyillari tizimi bo‘yicha ball diapazoni yuqori (13–15 ball yoki yulduz) bo‘lgan hududlar hisoblanib, ular institutsional (yoki davlat boshqaruvi samaradorligi) va texnik salohiyati yuqoriligi bilan xarakterlanadi;

– respublikaning Samarqand, Andijon, Xorazm, Farg‘ona, Buxoro viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlari “ESG” tamoyillari tizimi bo‘yicha ball diapazoni o‘rtadan yuqori bo‘lib (10–12 ball yoki yulduz), ular “yashil” investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha ma’lum salohiyatga ega holda loyihalarni to‘g‘ri tanlash muhim ahamiyat kasb etadi;

– Namangan, Surxondaryo, Jizzax va Sirdaryo viloyatlari o‘rta darajadagi (7–9 ball yoki yulduz) “ESG” tamoyillari tizimi bo‘yicha ball diapazoniga ega bo‘lib, ushbu hududlarda “ESG” tamoyillariga asoslangan transformatsiya va hududiy dasturlarni ishlab chiqishga ustuvorlik qaratish maqsadga muvofiq;

– respublikada faqatgina Qashqadaryo viloyatining “ESG” tamoyillari tizimi bo‘yicha ball diapazoni past darajada (7–9 ball yoki yulduz) bo‘lib, hududda energiya va boshqaruv bo‘yicha investitsiyalarni jalb qilishdan avval hududiy islohotlarni kuchaytirish zarurati mavjud ekanligi aniqlandi.

Umuman olganda, taklif etilayotgan “ESG” tamoyillari tizimiga asoslangan holda respublika viloyatlari kesimida belgilangan tarmoqlarga “yashil” investitsiyalarni jalb qilish orqali mintaqaviy barqaror rivojlanishning ekologik va iqtisodiy yo‘nalishdagi rivojlanish salohiyatidan foydalanish samaradorligi ortadi. Shu bilan birga, hududlarga bu turdagi “yashil” investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar davlat va hududiy dasturlar asosida barqaror rivojlanish mexanizmini xalqaro standartlarga integratsiyalash imkoniyatini kengaytiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Thomas, D (2023) Annual Report on the U.S. Manufacturing Economy: 2023. (National Institute of Standards and Technology, Gaithersburg, MD), NIST Advanced Manufacturing Series 600-13-upd1. – 64 p.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi hamda mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining ishlab chiqarishni mahalliylashtirish va sanoat tarmoqlarida kooperatsiya aloqalarini jadallashtirishning yangi tizimini joriy etish bo‘yicha mas’uliyatni yanada oshirish to‘g‘risida”gi PQ-4426-son qarori, 24.08.2019 y. https://lex.uz/ru/docs/4486600

3. Van Zanten J. A., & Van Tulder R. Multinational enterprises and the Sustainable Development Goals: An institutional approach to corporate engagement. Journal of International Business Policy, Vol. 1 (3-4), 2018. – pp. 208–233.
4. Tsolakis N., Niedenzu D., Simonetto M., Dora M., & Kumar M. Supply network design to address United Nations sustain-able development goals: A case study of block chain implementation in Thai fish industry. Journal of Business Research, Vol. 131, 2021. – pp. 495–519
5. Yin X., Chen J., & Li J. Rural innovation system: Revitalize the countryside for a sustainable development. Journal of Rural Studies, Vol. 93, 2022. – pp. 471–478.
6. Yang K., Schot J., & Truffer B. Shaping the directionality of sustainability transitions: The diverging development patterns of solar photovoltaics in two Chinese provinces. Regional Studies, Vol. 56 (5), 2022. – pp. 751–769.
7. Rizzo C., Guido G., Pino G., Pirotti T., & Anzilli L. A fuzzy expert system for sustainable local development. Regional Studies, Vol. 56 (5), 2022. – pp. 808–817.
8. Foroudi P., Marvi R., Cuomo M.T., and D'Amato A. Sustainable Development Goals in a regional context: conceptualising, measuring and managing residents' perceptions. Regional Studies, Jul, 2024. – 16 pages. DOI: 10.1080/00343404.2024.2373871
9. Industrial Policy for the Sustainable Development Goals: Increasing the Private Sector's contribution. OECD Publishing, Paris, 2021. – 196 pages.
10. Wilson, G. K. Business and Politics. A Comparative Introduction. – N.J.: Chatham House Publishers, Inc. Chatham, 1990

## АНАЛИЗ ГОТОВНОСТИ УНИВЕРСИТЕТОВ К ПОДГОТОВКЕ СПЕЦИАЛИСТОВ В ОБЛАСТИ УПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВЫМ ПРЕДПРИЯТИЕМ И РЕАЛИЗАЦИИ ESG-КОНЦЕПЦИИ

**Кузнецов Виктор Павлович**
ФГБОУ ВО «Нижегородский государственный
педагогический университет имени Козьмы Минина»,
Доктор экономических наук, профессор кафедры
экономики предприятия
**Назарова Екатерина Николаевна**
ФГБОУ ВО «Нижегородский государственный
педагогический университет имени Козьмы Минина»,
студент магистратуры

***Аннотация.*** *В статье представлены результаты исследования готовности Мининского университета к подготовке специалистов в области управления устойчивым развитием и реализации ESG-концепции. Эмпирическую базу составили анкетирование студентов экономических специальностей и контент-анализ учебных планов. Результаты выявили критически низкий уровень осведомленности студентов в области*

***Ingliz tili muharriri:*** *Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi*
***Musahhih:*** *Vaxabova Marfua Mirkamalovna*
***Sahifalovchi va dizayner:*** *Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li*

**2- TOPLAM**
**2- MAXSUS SON /2025**

© Materiallar ko'chirib bosilganda, **"Management and Economics Scientific Research Journal"** jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pulli asosda chop etiladi.
El. pochta: journals@timeedu.uz
Tel.: +998 95 651 90 00

"Management and Economics Scientific Research Journal" jurnali 19.09.2024-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami: C-5669639
PNFL: 308906510

***Manzilimiz:*** *Toshkent shahar Yakkasaroy tumani Shota Rustaveli ko'chasi, 114*